

OROLBO'YI AHOLISINING QUROL-ASLAXALARI HARBIY TAQTIKASINING O'ZIGA XOS JIXATLARI

Satimov B.M.

Urganch innovatsion universiteti "Tarix" kafedrasida dotsenti

Hayitboyeva G.M.

Urganch innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qadimgi Xorazm aholisi va ularga qo'shni bo'lgan ko'chmanchi sak va massaget elatlarining jang olib borish usullari va ularning qurol-yarog'lari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Avesto, Mehr Yasht, Aleksandr Makedonskiy, Saklar, xorasmiylar, Gerodot, Kir II, so'g'diylar, baqtriyaliklar.

Аннотация. В данной статье представлена информация о методах ведения войны и оружии жителей Древнего Хорезма и соседних кочевых народов саков и массагетов.

Ключевые слова: Авеста, Мехр Яшт, Александр Великий, саки, хорезмцы, Геродот, Кир II, согдийцы, бактрийцы.

Abstract. This article presents information about the methods of warfare and weapons of the inhabitants of Ancient Khorezm and their neighboring nomadic Sakas and Massagetae.

Keywords: Avesta, Mehr Yasht, Alexander the Great, Sakas, Khorezmians, Herodotus, Cyrus II, Sogdians, Bactrians.

Qariyb 2700 yillik tarixga ega "Avesto" ning Mehr Yasht qismida Mitra xudosiga bag'ishlangan madhiyada harbiy jasorat, o'z qasamiga sodiq bo'lgan jangchi barcha uchun o'rnak qilib tasvirlanishi[1.B.45] o'sha paytda harbiylarga qo'yilgan talablarni hamda ularga nisbatan munosabatni ko'rsatib turibdi.

Xorazmiylarning kelib chiqishi va ularning asl vatani masalasi bo'yicha hozirgi kunda shakllangan yangi qarashlarga ko'ra, xorasmiylar Xorazm vohasiga Marg'iyona yoki hozirgi Herirud – Tajan daryolari atroflaridan ko'chib kelganligini inobatga oladigan bo'lsak, ularning O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari baqtriyaliklar, parfiyaliklar va saklar harbiy san'atidan qisman farq qiladigan taraflari ham bo'lgan albatta. Ammo, afsuski, aynan shu davrlar (miloddan avvalgi VII – VI asrlar) Xorazm harbiy san'ati masalasiga oid manbalar yoki arxeologik ashyolar topilmagan.

Arxaik va antik davrlar Xorazm vohasi aholisi qo'shin tuzilishi, ular qo'llagan harbiy taktika va strategiyasi haqida yozma manbalarda deyarli ma'lumotlar uchratmaymiz. Faqat qo'shni ko'chmanchi qabilalar sak – massaget qabilalarining ahamoniylarga qarshi olib borgan urushlari davridagi, umuman ahamoniylar qo'shini

tarkibida yunon – fors urushlaridagi va keyinchalik Aleksandr Makedonskiyning yurishlari davridagi faoliyati davomida ular qoʻllagan harbiy usul va taktikalari haqida maʼlumotlar mavjud. Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, bu bilan Xorazm vohasi aholisi ham aynan koʻchmanchi qabilalar qoʻllagan urush yoki jang uslublarini qoʻllaganliklari, qurollanish darajasi va jangavor qurol – aslahalar turlari aynan ularniki bilan bir xil boʻlgan degan xulosaga kelib boʻlmaydi. Chunki voha aholisi birinchidan tabiiy sharoitdan, ikkinchidan iqtisodiy rivojlanish darajasidan, uchinchidan esa siyosiy jarayonlar taʼsirida oʻziga xos jangavor tartib – qoidalarni, qurol – aslahalar turlarini ishlab chiqqanlar.

Qolaversa, soʻgʻdiylar, baqtriyaliklar yoki margʻiyonaliklar kabi oʻtroq qoʻshni elatlar ham xorazmiylar bilan arxaik davrdan siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy va madaniy aloqalarda boʻlib kelganlarki, ularning ham harbiy sanʼat sohasida erishgan yutuqlari yoki joriy qilgan yangiliklari voha aholisi harbiy sanʼatiga oʻz taʼsirini oʻtkazgan albatta. Etnik, ijtimoiy – maʼnaviy jihatdan bir – biriga juda yaqin boʻlgan bu elatlarning nafaqat ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy, balki harbiy sanʼat sohasida ham bir – biriga juda yaqin boʻlgan jangavor qoʻshin tuzilishi, harbiy strategiya va taktikalarni qoʻllaganliklari tabiiy. Shundan kelib chiqib, Xorazm vohasida yashagan elatlar harbiy sanʼatining eng qorongʻi boʻlgan davrlari arxaik va antik davrlarni faqat qiyosiy tahlil orqali ham ochib berish mumkin. Buni arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan moddiy ashyolar, topilgan baʼzi tasviriy manbalar ham tasdiqlaydi. Jumladan, eng birlamchi manba boʻlgan, Eron – ahamoniylari poytaxti Persepol xarobalari devoriy tasvirlarda Oʻrta Osiyoning sak – massagetlar, soʻgʻdiylar va baqtriyalar kabi xorazmliklar tasvirlari ham oʻz aksini topgan boʻlib, ularning tashqi koʻrinishi deyarli bir – biridan farq qilmaganliklarini koʻramiz. Gerodotning maʼlumotlariga koʻra ham Oʻrta Osiyo xalqlarining qurollanish darajasi va harbiy sanʼati bir xil boʻlgan.

Oʻzbek xalqi harbiy sanʼati rivojidadagi muhim davrlardan biri bu qadimgi ajdodlarimizning miloddan avvalgi VI asrda ahamoniylar saltanatiga qarshi olib borilgan urushlari hamda miloddan avvalgi 490-480 yillarda ahamoniylar qoʻshini tarkibida fors-yunon urushlarida qatnashgan payti boʻldi.

Shu tariqa miloddan avvalgi VI – V asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlari bilan bir qatorda xorazmiylar harbiy sanʼatining rivojlanishi va xalqaro miqyosda faoliyat yuritishi boshlandi. Buni biz ahamoniylar saltanatining asoschisi Kir II qoʻshinlarining massagetlar tomonidan tor-mor etilishi va Kir II ning oʻldirilishi misolida ham koʻramiz. Tarix otasi Gerodot bu jang tafsilotini batafsil taʼriflab oʻtgan [2.B.81-94]. Zero, xorazmiylarning bu paytda massagetlar konfederatsiyasiga kirganligini hisobga oladigan boʻlsak, bu urushda xorazmiylarning qatnashganligi aniq.

Miloddan avvalgi VI asrning oʻrtalarida Oʻrta Osiyoning janubiy viloyatlariga bostirib kelgan Ahamoniylar (Eron) qoʻshinlariga qarshi kurashgan ajdodlarimiz baqtriyaliklar, sugʻdliklar, margʻiyonaliklar, shuningdek, sak-massaget qabilalarining

jasorati, matonati va harbiy mahorati haqida yunon manbalarida qiziqarli tarixiy ma'lumotlar saqlanib qolgan. Jumladan, yunon tarixchisi Gerodotning to'qqiz kitobdan iborat "Tarix" asarida miloddan avvalgi 530 yilda vatanimiz hududiga bostirib kelgan Ahamoniylar, aniqrog'i Kir II boshchiligidagi fors qo'shinlariga qarshi malika To'maris boshchiligidagi massagetlar olib borgan mardonavor kurash yorqin tasvirlangan.

Gerodotning qayd etishicha, To'maris boshchiligidagi massagetlar Kir II qo'shiniga qarshi kurashda saklarga xos bo'lgan "qochib jang qilish" taktikasini qo'llaganlar. Oldin To'maris, go'yo uning boshiga tushgan kulfat (o'g'lining o'limi) tufayli o'z kuchlariga ishonchini yo'qotgandek harakat qiladi va ataylabdan kechikib, Kirni o'z ortidan bir dara tomon ergashtirib boradi, u yerga esa pistirma qo'yilgan edi. Avval bir-birlarini kamondan o'qqa tutish bilan boshlangan jang keyin qo'l jangiga aylanib ketadi, nayzalar va qilichlar bilan ayovsiz urush olib boriladi. Gerodot "eng shiddatli" deb ta'riflagan bu jangda massagetlar fors qo'shinlarini tor-mor keltiradilar.

Qadimgi yunon tarixchisi Ktesiy saklar va Midiya o'rtasida Parfiya ustidan hukmronlik qilish uchun yuz bergan ko'p yillik urushlar to'g'risida hikoya qiladi. Shu paytda saklarga boshliq Zarina ismli ayol bo'lib, u harbiy ishga ishqiboz edi [3.B.67-68]. Mazkur ma'lumotlarni hisobga olib, O'rta Osiyo janubida parfiyaliklar va baqtriyaliklar orasida saklar qurollanishi ta'sirida kamon tarqalishini taxmin qilish mumkin. Bizningcha, parfiyaliklar va baqtriyaliklar avvaldan saklar kamoning jangovar imkoniyatlarini bilib olib, unga o'xshash yoyni ixtiro qilishgan. Zarina, Sparetra singari ayol qabila boshliqlari shular jumlasidandir.

Gerodot va boshqa yunon mualliflari asarlarida forslarning qadimgi Gretsiyaga uyushtirgan harbiy yurishlarida qatnashgan baqtriyaliklar, saklar, sug'diylar haqida ham ma'lumotlar mavjud. Xususan, miloddan avvalgi 490 yilda bo'lib o'tgan Marafon jangida sak qabilasi suvoriylari ahamoniylar qo'shinining markaziy qismini tashkil etgan[2.B.304-305]. Gerodot Ahamoniylar shohi Kserks (miloddan avvalgi V asr) armiyasi tarkibida Gretsiyaga uyushtirilgan keng ko'lamdagi harbiy yurishlarda O'rta Osiyolik jangchilarning ishtirok etganligini yozib, ularning qurol-yarog'larini batafsil ta'riflab beradi[2.B.425-426].

O'rta Osiyo hududini bosib olgan Ahamoniylar mahalliy kuchlardan o'z harbiy yurishlarida foydalanganlar. Ahamoniylar qo'shini tarkibidagi xorazmliklarning otryadlari sak-massagetlar va baqtriyaliklar kabi ko'p janglarda eng foal kuch bo'lganlar. Masalan, makedoniyalik Aleksandr bilan Ahamoniylar o'rtasida miloddan avvalgi 331 yilda Gavgamel yonida bo'lib o'tgan janglarda ishtirok etgan saklarning otliq askarlari makedoniyaliklar safini yorib kirib, avangard qismlarni qochishga majbur etganlar.

Xorazm harbiy san'ati haqida qisqacha bo'lsada ma'lumotlarni ba'zi yevropalik olimlar asarlarida ham olish mumkin edi. Jumladan, mashhur italyan harbiy tarix

mutaxassisi Franko Kardini og'ir qurollangan otliq jangchi – katafraktariyning vujudga kelish vatanini aynan Xorazm bo'lgan deb hisoblaydi [4. B. 47].

Baqtriyalik va sug'dlik jangchilar jasorati va harbiy mahorati keyinchalik O'rta Osiyoga bostirib kirgan yunon-makedonlarga qarshi miloddan avvalgi 329-328 yillarda Spitamen boshchiligida ko'tarilgan qo'zg'alonlar davomida yanada yorqin namoyon bo'ldi. Ular bir necha yil davomida o'z vatanlarini bosqinchilardan ozod qilish uchun faol kurash olib bordilar. Mahalliy jangchilar mardonavor kurashlarda qo'llagan harbiy uslublari tufayli ko'p janglarda dushmanga pand berganlar. Shu sababli ham makedoniyalik Aleksandir o'z yurishlari tarixida ilk bor O'rta Osiyoda mag'lubiyat alamini tortgan, bu esa ajdodlarimizning yuksak harbiy mahoratga ega bo'lganligidan dalolat berar edi.

Shu tariqa O'rta Osiyoda yashovchi ko'chmanchi qabilalar va o'troq xalqlar tomonidan qo'llanilgan o'ziga xos xususiyatlardan iborat harbiy taktika tarix sahnasida paydo bo'ladi. Jangovar bolta, kalta nayza, xanjar bilan qurollangan piyoda qismlar, yengil kamonchilar va yopinchiqli mis sovutlar bilan yopingan otliq suvoriylar ajralib chiqadi. Jangchilar bronza dubulg'a va qalqon kabi himoyalovchi vositalardan foydalanishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Авесто / Асқар Махкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 45.
2. Геродот. История. В девяти книгах / Перевод Г.А.Стратановского. – Л.: Наука, 1972. – 600 с.
3. История Узбекистана в источниках / Составитель Б.В.Лунин. – Ташкент: Фан, 1984. – С. 67-68.
4. Кардини Ф. Истоки средневекового рыцарства: Пер. с ит./ Вступ. ст. В. И. Уколовой. Общ. ред. В. И. Уколовой и Л. А. Котелниковой. – М.: Прогресс, 1987. – С.47.